TAKLIFNOMA VA NIZOM

5TH INTERNATIONAL
PRESIDENT CUP

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun V xalqaro shaxmat turniri



SANALAR
27.11 – 07.12.2026

MANZIL
Toshkent, O‘zbekiston

SOVRIN JAMG‘ARMASI
$100,000

RO‘YXATDAN O‘TISH
presidentcup.uz/register
presidentcup.uz

TAKLIFNOMA

O‘ZBEKCHA

Hurmatli shaxmatchilar!

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi sizni 2026-yil 27-noyabrdan 7-dekabrgacha Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida bo‘lib o‘tadigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun V xalqaro shaxmat turnirida ishtirok etishga taklif qiladi.

Turnir FIDE qoidalari asosida “Masters”, “Open-A” va “Open-B” guruhlarida o‘tkaziladi. Batafsil shartlar quyidagi Nizomda va presidentcup.uz saytida keltirilgan.

SANALAR
2026-yil 27-noyabr – 7-dekabr

MANZIL
Olimpiya shaharchasi, Toshkent

SOVRIN JAMG‘ARMASI
100 000 AQSh dollari

RO‘YXATDAN O‘TISH MUDDATI
2026-yil 13-noyabr, soat 17:00 gacha (mahalliy vaqt)

Hurmat bilan,
O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi

RO‘YXATDAN O‘TISH
presidentcup.uz/register
presidentcup.uz

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi
Bosh kotibi
B. Sattarov



O‘ZBEKCHA

NIZOM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun V xalqaro shaxmat turnirini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida

Veb sayt **presidentcup.uz** Ro‘yxatdan o‘tish **presidentcup.uz/register**

I TURNIRNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1 Mamlakatimizda shaxmat sportini yanada kengroq targ‘ib qilish va yoshlarni sport musobaqalariga ommaviy ravishda jalb qilish;

1.2 o‘zbekistonlik shaxmatchilarning bilim va tajribalarini yanada rivojlantirish va ularni munosib rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

1.3 havaskorlar va yosh shaxmatchilarning sport malakalarini oshirish, o‘quvchilarning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko‘maklashish;

1.4 yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish va madaniy-sport aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadlarida o‘tkaziladi.

II TURNIRNI O‘TKAZISH TARTIBI

2.1 Turnirni tashkil etish va o‘tkazish O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

2.2 Turnir Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida 2026-yil 27-noyabr (kelish kuni) 7-dekabrgacha (ketish kuni) bo‘lib o‘tadi.

2.3 Musobaqa FIDE qoidalari asosida 3 (uch) guruhda tashkil etiladi:

- **“Masters”** – 2600 va undan yuqori FIDE reytingga ega bo‘lgan shaxmatchilar, shuningdek, musobaqa tashkilotchilari tarafidan tanlab olingan o‘zbekistonlik shaxmatchilar (o‘zbekistonlik tanlab olingan shaxmatchilarning reyting ko‘rsatkichi bundan mustasno);
- **“Open-A”** – ochiq musobaqa bo‘lib, FIDE reytinggi 2000 va undan yuqori bo‘lgan va musobaqa badalini to‘lagan barcha shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin;
- **“Open-B”** – FIDE reytinggi 0–2099 gacha bo‘lgan va musobaqa badalini to‘lagan barcha shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin.

2.4 “Masters”, “Open-A”, “Open-B” guruhi ishtirokchilarining FIDE reytingi (standart) 2026-yil 1-noyabr holatiga ko‘ra taklif etiladi va qur’a tashlash jadvalida 2026-yil 1-noyabr holati ko‘rsatiladi.

2.5 Tashkiliy qo‘mita taklif etilgan shaxmatchilarning 2026-yil 1-noyabr reytingiga ko‘ra, mehmonxona va aviachipta imtiyozlarini taqdim etadi.

2.6 Tashkilotchilar cheklangan miqdorda yuqori reytingli shaxmatchilarni qabul qiladi. Ishtirokchilar imtiyozli qabul uchun presidentcup@uzchess.uz elektron pochtasi orqali so‘rov yuborishlari mumkin.

2.7 Har bir ishtirokchiga 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi. 30-yurishgacha durangga kelishish mumkin emas.

- **“Masters”** guruhi aylanma tizim standart yo‘nalishida 9 turda o‘tkaziladi;
- **“Open-A” va “Open-B”** guruhlari shveysarcha tizim standart yo‘nalishida 9 turda o‘tkaziladi.

2.8 Turga maksimal kechikish vaqti 15 daqiqa. Hech qanday ogohlantirishsiz turga kelmagan ishtirokchilar musobaqa bosh hakami tomonidan keyingi tur qur’asiga qo‘shilmasligi mumkin.

2.9 Qur’a tashlash jarayoni Swiss Manager programmasida bajariladi.

2.10 Musobaqaning barcha ishtirokchilari 2026-yil 27-noyabr soat 16:00–19:00 ga qadar Olimpiya shaharchasiga kelib o‘z ishtirokini tasdiqlashi shart. Aks holda qur’a jadvalidan olib tashlanadi.

2.11 Musobaqada ishtirok etishni istagan xorijlik shaxmatchilar 2026-yilning 13-noyabr soat 17:00 (mahalliy vaqtga) qadar presidentcup.uz/register sahifasi orqali ro‘yxatdan o‘tishlari yoki O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining rasmiy elektron pochtasi presidentcup@uzchess.uz orqali ariza yuborishlari mumkin.

2.12 “Masters” guruhidagi o‘zbekistonlik shaxmatchilar tarkibi O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi trenerlar kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. O‘zbekistonlik shaxmatchilar 2026-yil 13-noyabr kuni soat 17:00 ga (mahalliy vaqt bo‘yicha) qadar trenerlar kengashiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

2.13 Tadbir tartibi:

SANA	TADBIR	MASTERS · OPEN-A · OPEN-B
27.11.2026	Kelish kuni	Kun davomida
27.11.2026	Akkreditatsiya	16:00 – 19:00
28.11.2026	Ochilish marosimi	14:30
28.11.2026	1-tur	15:00
29.11.2026	2-tur	15:00
30.11.2026	3-tur	15:00
01.12.2026	4-tur	15:00
02.12.2026	5-tur	15:00
03.12.2026	6-tur	15:00
04.12.2026	7-tur	15:00
05.12.2026	8-tur	15:00
06.12.2026	9-tur	15:00
06.12.2026	Yopilish marosimi	20:30
07.12.2026	Ketish kuni	Kun davomida

III TURNIR G‘OLIBLARINI TAQDIRLASH

3.1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun V xalqaro shaxmat turnirining umumiy mukofot jamg‘armasi 100 000 AQSh dollarini tashkil qiladi.

3.2 O‘zbekistonlik sovrindorlar sovrinlarini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha milliy valyutada qabul qilib olishadi.

3.3 Pul mukofotlari sovrindorlarga ular barcha kerakli hujjatlarni taqdim etgandan keyin ularning hisob raqamlariga, bank kartalariga o‘tkazib yoki naqd berilishi mumkin.

3.4 Bank xizmatlari sovrin jamg‘armasidan ushlab qolinadi.

3.5 “Masters” turnirining g‘oliblari to‘plangan ochkolar soni bo‘yicha aniqlanadi. Ochkolar soni teng bo‘lgan holda o‘rinlarni aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi:

1. O‘zaro uchrashuv;
2. Sonneborn-Berger koeffitsiyenti;
3. G‘alabalar soni;
4. Qora donalarda ko‘proq g‘alabalar soni;
5. Koya tizimi va boshqalar.

3.6 “Open-A”, “Open-B” turnirlarining g‘oliblari to‘plangan ochkolar soni bo‘yicha aniqlanadi. Ochkolar soni teng bo‘lgan holda o‘rinlarni aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi:

1. Qisqartirilgan Buxgolts koeffitsienti −1;
2. Raqiblarning o‘rtacha reytinggi;
3. Buxgolts koeffitsienti;
4. Qora donalarda o‘ynalgan partiyalar soni;
5. Shaxsiy uchrashuv va boshqalar.

3.7 Qur’a tashlash tartibi bosh hakam tarafidan belgilanadi.

3.8 Agar ishtirokchilarning ballari teng bo‘lsa, ularning sovrinlari yuqorida ko‘rsatilgan tenglik bo‘yicha taqsimlanadi. Agar bitta o‘yinchi ikkita nominatsiyada g‘olib chiqsa, sovrinlar umumlashtirilmaydi, kattaroq sovrin yoki bosh sovrin beriladi.

3.9 G‘oliblar quyidagi tartibda pul mukofoti bilan taqdirlanadi:

MASTERS

№	SOVRIN	USD
1	1-o‘rin	10,000
2	2-o‘rin	8,000
3	3-o‘rin	7,000
4	4-o‘rin	5,000
5	5-o‘rin	4,000
6	6-o‘rin	3,500
7	7-o‘rin	3,000
8	8-o‘rin	2,500
9	9-o‘rin	2,000
10	10-o‘rin	1,500
	Jami MASTERS	**46,500**

OPEN-B

№	SOVRIN	USD
1	1-o‘rin	4,000
2	2-o‘rin	3,000
3	3-o‘rin	2,000
4	4-o‘rin	1,500
5	5-o‘rin	1,000
6	Eng yaxshi nuroniy 50+	500
7	Ayollar o‘rtasida 1-o‘rin	500
8	12 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
9	12 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
10	10 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
11	10 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
	Jami OPEN-B	**13,500**

OPEN-A

№	SOVRIN	USD
1	1-o‘rin	8,000
2	2-o‘rin	6,000
3	3-o‘rin	5,000
4	4-o‘rin	4,000
5	5-o‘rin	3,000
6	6-o‘rin	2,000
7	7-o‘rin	1,500
8	8-o‘rin	1,000
9	9-o‘rin	900
10	10-o‘rin	800
11	11-o‘rin	700
12	12-o‘rin	600
13	Eng yaxshi o‘zbek ayol o‘yinchi	500
14	Ayollar o‘rtasida 1-o‘rin	1,500
15	Ayollar o‘rtasida 2-o‘rin	1,000
16	Ayollar o‘rtasida 3-o‘rin	500
17	Eng yaxshi nuroniy 50+	500
18	Eng yaxshi nuroniy 60+	500
19	16 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
20	16 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
21	14 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
22	14 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
23	12 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
24	12 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
25	10 yoshgacha eng yaxshi o‘g‘il bola	300
26	10 yoshgacha eng yaxshi qiz bola	200
	Jami OPEN-A	**40,000**

UMUMIY SOVRIN JAMG‘ARMASI, USD **100,000**

IV TURNIR ISHTIROKCHILARI VA BADALI

4.1 “Open-A” va “Open-B” guruhi o‘zbekistonlik ishtirokchilari uchun turnir badali:

GURUH	IMTIYOZLI	400 000 SO‘M	500 000 SO‘M	600 000 SO‘M
Open-A	GM/WGM/IM/WIM	2300–2450	2200–2299	2000–2199
Open-B	—	1800–2099	1400–1799	Reytingsiz

4.2 Nogironligi bo‘lgan shaxslar, 60 yoshdan oshgan faxriylar hamda xotin-qizlar uchun belgilangan badaldan 50 foiz chegirma taqdim etiladi. Mazkur chegirma faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qo‘llaniladi.

4.3 Turnir badalini ro‘yxatdan o‘tish vaqtida presidentcup.uz/register sahifasi orqali onlayn yoki quyidagi bank hisob raqamlariga o‘tkazma orqali to‘lash mumkin.

4.4 O‘zbekistonlik ishtirokchilar o‘z badallarini 2026-yil 13-noyabr kuni soat 17:00 gacha (mahalliy vaqt bo‘yicha) O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining bank hisob raqamiga o‘tkazadilar:

Hisob raqami	2021 2000 9001 7827 6006
INN	201710234
Bank nomi	PJSCB “DAVR BANK”
MFO	00981

4.5 Xorijlik ishtirokchilar uchun 2026-yil 13-noyabr kuni soat 17:00 gacha (mahalliy vaqt bo‘yicha) 100 AQSh dollari to‘lanadi. Xorijlik fuqarolar to‘lovlarini quyidagi bank hisobiga to‘laydilar:

Qabul qiluvchi	O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi
Account	2021 2840 2001 7827 6009
S.W.I.F.T.	DVRBUZ22
Bank nomi	P.J.S.C. “DAVR BANK”
Manzil	98A Karimov str, Tashkent, Uzbekistan
Bank telefon raqami	(99871) 207-09-81

4.6 Ro‘yxatdan o‘tishga kech qolgan o‘zbekistonlik shaxmatchilar 300 000 so‘m, xorijlik shaxmatchilar esa 50 USD qo‘shimcha badal puli to‘lashlari shart.

V APELLYATSIYA QO‘MITASI

5.1 Turnir natijasi bo‘yicha berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun kamida 5 kishidan (3 asosiy, 2 zaxira) iborat apellyatsiya qo‘mitasi tashkil etiladi. Apellyatsiya qo‘mitasi tarkibi tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

5.2 Turnir hakamlaridan va ularning qabul qilgan qarorlaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar musobaqa jarayonida apellyatsiya qo‘mitasiga turning oxirgi o‘yini tugaganidan so‘ng 1 (bir) soat ichida murojaat qilishlari mumkin.

VI FAIR PLAY QOIDALARI

6.1 Barcha ishtirokchilar FIDEning Fair play qoidalariga amal qilishlari va hamkorlik qilishlari talab etiladi. O‘yinchilar istalgan vaqtda bosh hakamning Fair play qoidalariga asoslangan yakuniy qaroriga binoan turnirdan chetlatilishi mumkin.

6.2 Barcha o‘yinchilar yuqorida aytib o‘tilgan harakatlar ustidan arbitraj, maslahatlashuv yoki biron bir yurisdiksiya doirasida sudga shikoyat qilish huquqiga ega emas. Ishtirokchilar turnir davomida tuzilgan juftliklar uchun apellyatsiyaga berish huquqiga ega emaslar. Turnirda ro‘yxatdan o‘tish orqali o‘yinchilar turnir bilan bog‘liq hech qanday moliyaviy kompensatsiya yoki turnir bilan bog‘liq tuzatish talab qilish huquqiga ega bo‘lmaydi.

6.3 Tadbirning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun Tashkilotchi tegishli xabarnoma bilan jadvalni o‘zgartirish, reglamentni yangilash yoki amaldagi qoidalarda ko‘rsatilmagan har qanday masala bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega.

VII VIZALAR

7.1 O‘zbekistonga kirish uchun viza zarur bo‘lgan ishtirokchilar 2026-yilning 2-noyabriga qadar ro‘yxatdan o‘tishlari, pasport nusxalarini yuborishlari kerak. Aks holda, tashkilotchilar viza yordamini kafolatlamaydi.

7.2 Agar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi viza berishga ruxsat bermasa, tashkilotchilar viza bo‘yicha hech qanday yordam ko‘rsata olmaydi.

VIII KIYINISH TARTIBI VA SOG‘LIQNI SAQLASH CHORALARI

8.1 Turnirda FIDE dress kod qoidalariga amal qilinadi.

8.2 Tana harorati ko‘tarilgan yoki boshqa kasallik belgilari bo‘lsa, ishtirokchi turnirdan chetlashtirilishi mumkin. Agar kerak bo‘lsa, keyinroq qo‘shimcha qoidalar chiqarilishi mumkin.

IX TURNIRNI MOLIYALASHTIRISH

9.1 Sovrin jamg‘armasi va tashkiliy xarajatlar, hakamlar, transfer, turar joy va turnirning taklif etilgan ishtirokchilari va rasmiy shaxslari uchun to‘lovlar O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi, homiylik va musobaqa badallari hisobidan qoplanadi.

X YAKUNIY QOIDALAR

10.1 Musobaqalarning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun musobaqa nizomiga tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

10.2 Turnirda ishtirok etadigan “Masters” guruhidagi shaxmatchilar tashkil etiladigan media tadbirlarida ishtirok etishi va intervyu berishlari talab etiladi. Agar ishtirokchi partiyalarini sharhlashdan va intervyu berishdan bosh tortsa, har bir intervyu bermaganligi uchun 100 AQSh dollari miqdorida jarimaga tortiladi.

ALOQA MA’LUMOTLARI

TURNIR SAYTI
presidentcup.uz

RO‘YXATDAN O‘TISH
presidentcup.uz/register

TELEFON
(+998 95) 511-14-00

E-MAIL
presidentcup@uzchess.uz

FEDERATSIYA SAYTI
www.uzchess.uz

TELEGRAM
t.me/Uzbchessfederation